

"O'ZKIMYOSANOAT" HAMDA "NAVOIYAZOT" AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING RASMIY BAYONOTI

// 07.09.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-bayonot-azot>



Ommaviy axborot vositalarida, jumladan, Podrobno.uz veb sayti hamda Kompromatuzb va NAVOIY VIIB telegram kanallarida "Navoiyazot" AJ tomonidan Zarafshon daryosiga tashlanadigan ifloslangan suvlar tarkibida azot kislotasi miqdori tavsiya qilinganidan ortib ketganligi natijasida Zarafshon daryosida yashovchi tirik jonzorlar nobud bo'lgan" mazmunidagi ma'lumotlar keng tarqalmoqda.

Holat yuzasidan "O'zbekimiyosanoat" hamda "Navoiyazot" AJlar quyidagilarni ma'lum qiladi.

Olingan tahlil natijalariga ko'ra pH me'yor darajasida, agar azot kislotasi mavjud bo'lganida edi ushbu ko'rsatkich me'yordan pasaygan bo'lardi.

T/r	Namuna olish joyi	Namuna olish sanasi va vaqti	Kimyoviy modda	Me'yor, mg/dm ³	Tahlil natijalari
1	KI 267	02.09.22y. soat 9 ⁴⁰	rN	6,5-8,5	7,95
2	KI 267	03.09.22y. soat 10 ¹⁰	rN	6,5-8,5	8,0

3	KI 267	04.09.22y. soat 9 ⁰⁰	rN	6,5-8,5	7,85
---	--------	---------------------------------	----	---------	------

Shu bilan birga aytib o'tish jozki "Navoiyazot" AJ oqova suvlari ikki guruhga ajratilishi haqida ko'p bor ma'lum qilingan. Bular tarkibi zararli bo'lgan ishlab chiqarish oqova suvi (sanoat kanalizatsiyasi) hamda toza hisoblanadigan yomg'ir va sovituvchi suv tizimlaridan tashlanadigan suvlardir (promlivnevaya kanalizatsiya).

"Navoiyazot" Ajda ishlab chiqarishda hosil bo'lgan zararli oqova suvlar alohida Biokimyoviy tozalash inshootiga yuboriladi va u yerda talab darajasida ekologik tozalanib, biohavzalarga tashlanadi. Ikkinchi turdagi zararli ishlab chiqarish oqova suvlari shlam yig'uvchi havzada yig'ilib quritiladi hamda shlamlari utilitatsiyaga yuboriladi. Mazkur ikkala jarayon ham korxonada jiddiy nazoratga olingan bo'lib, hozirgi kunda ham uzluksiz faoliyati ta'minlangan.

"Navoiyazot" AJ o'z ish faoliyatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, farmonlari hamda barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan kelib chiqqan holda, korxonaning atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish bo'yicha muntazam ravishda tizimli va maqsadli ishlarni olib boradi. Shu bilan birga, "Navoiyazot" Ajdan atmosferaga tarqaydigan chiqindilar va oqova suv chiqindilari korxonaning ekologik tahlil (sanitariya) laboratoriyasi tomonidan doimiy nazoratga olingan. Korxonada joylashgan hudud ekologiyasiga ta'sirni kamaytirish maqsadida "Navoiyazot" Ajda atmosfera va suv omborlariga chiqindilarning chiqarilishi, eng muhimi, ularning hosil bo'lishini kamaytirish, shuningdek, xomashyo hamda energiya resurslarini tejash maqsadida joriy yilning o'zida 2 mlrd. so'mdan ortiq qiymatdagi chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Bugungi kunda tashlanayotgan oqova suvlarning tarkibida ammoniy birikmalari avvalgi yillardagi kabi ko'rsatkichda va bu Zarafshon daryosidagi baliqlarning qirilib ketishiga sabab bo'ladigan darajada emas. Chunki ammoniy birikmalari bir necha yillardan beri yuqori dinamikani tashkil qilib kelgan, lekin bu holat daryodagi baliqlarga salbiy ta'sir ko'rsatmagan.

Joriy yilning 4-sentyabr kuni Zarafshon daryosida sodir bo'lgan, baliqlarning nobud bo'lishi bilan bog'liq voqeadan so'ng darhol korxonaning ekologik tahlil (sanitariya) laboratoriyasi tomonidan daryo suvi va oqova suvlardan namunalar olinib, laboratoriya tahlillari o'tkazilgan bo'lib, ular quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

Tahlil joyi	O'lchov birligi	«Navoiyazot» AJ 267-quduq	Azamat posti
RN ko'rsatkichi		7,85	8,35
Suv qattiqligi	mgekv/dm3	17,6	15,2
Xloridlar	mg/l	230	140
Ammoniy	mg/l	4,1	2,7
Sian tuzlari	mg/l	0	0
Ishqoriyligi	mgekv/dm3	3,2	3,8
Nitratlar	mg/l	27,4	16,2
Gidrazin	mg/l	ishlatilmaydi	0,007

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, korxonaning ekologik tahlil (sanitariya) laboratoriyasi tahlillari natijalariga ko'ra, "Navoiyazot" Ajdan boshqa korxonalar oqova suvlari tarkibida 0,03 mg/l gidrazin moddasi borligi aniqlandi. Gidrazin moddasining baliqlar yashaydigan suv havzasiga tashlanayotgan oqova suvlar tarkibida bo'lishi taqiqlanadi.

"Navoiyazot" Ajga qarashli 267-qudug'iga tashlanadigan oqova suvlar tushadigan texnologik qurilmalarda gidrazin moddasi ishlatilmaydi.

Yana bir jihatga e'tibor qaratish lozim. Baliq yetishtirish xo'jaliklarida ozuqa uchun ammoniy moddalaridan foydalaniladigan baliq yetishtirishning intensiv texnologiyalari ham mavjud. Bunga misol qilib, baliq yetishtirishda ammofos o'g'iti ishlatilishi va uning tarkibida 46% fosfor hamda 12% ammoniy birikmalari mavjudligini keltirishimiz mumkin.

Zarafshon daryosiga to'g'ridan-to'g'ri oqova suvlarning tashlanishi va kelgusida ham kuzatilishi mumkin bo'lgan bu kabi asossiz ayblovlarning oldini olish maqsadida "Navoiyazot" Ajda barcha oqova suvlarni Biologik kimyoviy tozalash inshootiga yo'naltirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, huquqni muhofaza qilish organlari va "Navoiyazot" AJ xodimlari tomonidan barcha oqova suvlar tashlanadigan joylardan tahlil uchun namunalar olinib, sodir bo'lgan hodisa yuzasidan tekshiruv ishlari olib borilmoqda. Natijalari bo'yicha aniq ma'lumotlar tezkorlik bilan jamoatchilikka taqdim etib boriladi.

Shu o'rinda, ayrim OAV vakillari, blogerlar va ijtimoiy tarmoq faollaridan taxminlarga asoslangan, noaniq ma'lumotlarni tarqatmaslik va asossiz ayblovlardan yiroq bo'lishlarini so'raymiz. Mavzu yuzasidan aniq, batafsil va tezkor ma'lumotlarni olish uchun "O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati bilan bog'lanishingiz mumkin (+998 78 140 74 26).

"O'zkimyosanoat" AJ ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratadi va ustuvor vazifa deb biladi. Bu borada tizim korxonalarida muntazam monitoring o'rnatish, kimyo sanoatida ekologik talablarga to'liq javob beradigan zamonaviy texnologiyalar va "yashil energetikani" keng joriy qilish bo'yicha tizimli ishlar davom ettiriladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati